



INGLIZ VA O'ZBEK FRAZEOLOGIZMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Tursunov Mirzo Mahmudovich

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Egamova Shahnoza Asrorovna

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasida magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi ya'ni frazeologiya sohasi haqida bo'lib, maqolada uning zamonaviy tilshunoslik sohasidagi o'rni va ahamiyati tadqiq qilingan. Frazeologizmlar tilning leksik qatlamiga kirganligi sababli u tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi. Shunga qaramay, frazeologiya bo'limining asosini tashkil etuvchi frazeologik birliklar inson omili bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy tilshunoslikning turli sohalarida tadqiqot obyekti sifatida xizmat qiladi. Turli konseptlarni ifodalashda frazeologik birliklar uni ravshan, tushunarli va ta'sirchan usulda ifodalashga xizmat qiladi. Hamda frazeologizmlar boshqa tillardagi kabi ingliz va o'zbek tilida ham ushbu xalqlarning o'ziga xos fikrlash tarzini ko'rsatuvchi stereotip sifatida ifodalanadi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizm, kognitiv lingvistika, turg'un birikma, lingvomadaniy birlik, stereotip.

Annotation: this article is about the field of linguistics as a scientific researcher of phraseologisms, that is, the field of phraseology, and the article explores its place and importance in modern linguistics. Since phraseologisms are part of the lexical layer of a language, it is considered as a branch of linguistics that is part of the field of lexicology. Nevertheless, the phraseological units that form the basis of the phraseology section serve as an object of study in various areas of modern linguistics related to the human factor. In the expression of various concepts, phraseological units serve to express it in a clear, understandable and affective way. And phraseologisms are expressed in English and Uzbek, as in other languages, as a stereotype indicating the specific way of thinking of these people.

Keywords: phraseology, phraseologism, cognitive linguistics, set phrase, linguocultureme, stereotype.

Kirish

Bugungi kunga kelib frazeologiya sohasi tilshunoslikda olib borilayotgan ko'plab izlanishlarning tadqiqot vositasi sifatida fanda mustahkam o'rin egallab, uning taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Frazeologiya tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi turg'un birikmalar, ya'ni, frazeologizmlarni o'rganuvchi sohasi bo'lib, u qadimgi yunon tilidan olingan va "frasis"- "ibora", "logos"-tushuncha, ta'limot demakdir. Frazeologiya fan sifatida shakllangandan beri ko'p vaqt o'tgani yo'q. Dunyo tilshunosligida olimlar XVIII asrdan boshlab frazeologik birliklarni ilmiy asosda o'rgana boshlashgan..¹⁵ Frazeologiya dastavval

¹⁵ <https://audiobook.uz/blogs/news/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar>



stilistika fani tarkidida o'rganilgan. "Frazeologiya" atmasini esa, fanga ilk bor fransuz-shveysar tadqiqotchisi Charl Balli(1865-1947) olib kirgan. Balli o'zining "Stilistika ocherki"(1905) va "Fransuz stilistikasi"(1909) asarlarida frazeologizmlarni o'rganib chiqqan. Rus tilshunosi Polivanov ilk bor frazeologiyani alohida fan sifatida o'rganish fikri bilan chiqqan. N.N.Amasova, A.B.Kunin ingliz, V.G.Gakk, Y.I.Retsker, Z.N.Levitlar fransuz, A.D.Rayxshteyn, I.I.Chernishova nemis hamda A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, L.A.Buxalovskiy, A. A.Shaxmatovlar o'z asarlarida rus frazeologiyasi masalalarini ko'rib chiqishgan. O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. O'zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev, K.Yusupov, H.G'ulomov, M.Siddiqova, X.Tursunova, K.Bozrboyev A.Zohidov, A.E.Mamatov va M.M.Tursunovlar o'zbek frazeologiyasi masalalarini o'z ilmiy ushlarida tadqiq qilishgan. Tadqiqotchilarning frazeologiya sohasi bilan shug'ullanganiga endi bir necha yuz yil bo'lgan bo'lsada, frazeologik birliklarning yaralishi insoniyat tarixichalik qadimiydir. Bir tilning frazeologiyasini o'rganish orqali ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, fe'l-atvori, yurish-turishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Darhaqiqat, bir tilning frazeologik olami uning madaniyati haqidagi qimmatbaho manbadir. Ingliz tadqiqotchisi Raymond.V.Gibbsning ta'kidlashicha, insonlar kundalik turmush tarzida bir-biri bilan kamdan-kam hollarda badiiy tilda suhbat quradi va ushbu holatda fikrni, ayniqsa, mavhum g'oyalarni ifoda etishda turli ibora va maqollar yordamga keladi.¹⁶ Shunday ekan, turli frazeologik birliklar so'zlovchining nutq uslubini bezovchi lingvistik bezaklargina bo'lib qolmasdan, balki, tilning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy o'zaro munosabatni yengillashtiradi, Shunday ekan, turli frazeologik birliklar so'zlovchining nutq uslubini bezovchi lingvistik bezaklar emas, balki, tilning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy o'zaro munosabatni yengillashtiradi, matn uyg'unligini kuchaytiradi, va eng asosiysi, insonning anglatmoqchi bo'lgan fikrini ifoda etishni osonlashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Keyingi yillarda frazeologiya tilshunoslikning keng o'rganilayotgan sohalaridan bo'lib, hozirgi paytda frazeologizmlar zamonaviy tilshunoslikda xalqning o'ziga xos dunyoqarashi, fikrlash va yashash tarsi, olamni tasavvur qilish usuli, milliy-madaniy tomonlarining o'ziga xos tomonlarini yoritib beruvchi vosita sifatida qaraladi.

Ilk ingliz frazeologizmlarini tahlil qilgan tadqiqotchilaridan biri ingliz rassomi, leksikografi va qadmiy buyumlar hamda xalq og'zaki namunalari to'plovchisi Frensis Gros bo'lib, u butun Angliya hududi bo'ylab kezib, xalq orasida ishlatiladigan, rasman biror hujjatda keltirilmagan ko'plab iboralarni to'playdi va 1785-yilda ular asosida "Dictionary of the vulgar tongue" izohli lug'atini chop ettiradi. Gris xalq orasida kundalik hayotda ko'p qo'llaniladigan bunday iboralarning kelib chiqish tarixi, ishlatilish holatlarini izohalshga harakat qiladi., ishlatilish holatlari ham keltirilgan. Misol uchun, biz bugungi kunda oddiygina " to die- vafot etmoq" ma'nosida ishlatadigan, rasman ingliz tili lug'at boyligi tarkibiga kiritilgan " kick the bucket" iborasi o'sha davrda noadabiy til qatlamiga kirgan,

¹⁶ D.Geeraerts and H.Cuykens. The Oxford Handbook of Cogniyive Linguistics. Oxford University Press, 2007.



og'zaki til vositasi sifatida qo'llanilgan "kick the bucket" iborasini quyidagicha ifodalaydi: "bu ibora 16-asrda paydo bo'lgan bo'lib, uning kelib chiqishi bucket- kushxonada bo'ladigan, hayvonlarni, (odatda cho'chqalarni) so'yish uchun oyog'idan osid qo'yiladigan yog'och buyumga borib taqaladi, ma'nosi- o'lmoq".¹⁷ Bu iboraning kelib chiqish sababi kundalik xalq turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, xalqning yashash tarzini ifodalaydi.

Frazeologizmlar borasida tadqiqotlar olib brogan tilshunos olim F.I.Buslayev ularni quyidagicha ta'riflagan: " Frazeologizmlar o'ziga xos kichik dunyo bo'lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o'z ichiga olgan qisqa hikmatli ifodalardir. Ular millatning o'ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir".¹⁸

V.A.Maslova esa frazeologizmlar haqida quyidagi fikrlarni izohlaydi:

1. Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo'lgan milliy madaniyatning "izi" mavjud.

2. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo'lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy, milliy bo'yoq beradi.

3. Madaniy-milliy o'ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir.¹⁹

Bugungi kunda ushbu sohada tadqiqot olib borayotgan ko'pgina tilshunoslar, jumladan, M.M.Tursunov, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev, A.Haydarov kabilar ham o'z ilmiy ishlarida frazeologik birliklarning zamonaviy tilshunoslikda tutgan o'rnoni yoritib berishdi.

Muhokama va natijalar

Olib borilgan tadqiqotlar, izlanishlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar u yoki bu milliy mentalitetga xos bo'lib, ular ushbu xalqning milliy o'ziga xosligini, olamni anglash borasidagi o'ziga xos fikrlash tarzini yoritib beruvchi, xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, tarixini yoritib beruvchi turg'un birikmalardir. Ular milliylikka xos bo'lgan an'analarni o'zida jamlab, ularni keyigi avlodga yetkazishda katta hissa qo'shadi. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar turli xil konseptlarni til orqali bayon qilish vositasi, lingvokulturologik iboralar, milliy stereotip vositalari sifatida talqin qilinadi. Masan o'zbek tilida "o'lim" ma'nosini bildiradigan "boqiy dunyoga rixlat qilmoq", "foniy dunyo bilan xayrlashmoq", "omonatini topshirmoq" kabi iboralar iboralar o'zbek xalqining yashash tarzi, an'analari, fikrlash usliga singib ketgan islom dini aqidalari bilan bog'liq bo'lib, unda xalq ongida o'rnashgan bu dunyoning aslida bir o'tkinchi, sinovchi dunyo ekanligi, haqiqiy dunyo esa, vafot etgandan so'ng, jonini egasi ya'ni Allohga topshirgandan so'ng boshlanishi va uning abadiyligi bilan bog'liq tushunchalarni aks ettiradi. Masalan: Ukamni tizzasiga o'tkazib choy ichirayotgan oyim hayron bo'lib dadamga qaradi:

— Tinchlikmi? Dadam negadir ko'zini yashirdi:

— Odamzodning ahvoli shu ekan-da, — dedi xo'rsinib. — Habiba buvi omonatini topshiribdi.²⁰

¹⁷ Francis Grose, Classical Dictionary of the Vulgar Tongue, London, No 212, High Holborn, 1785.

¹⁸ Буслаяев Ф.И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные, - М.: Русский язык, 1954.

¹⁹ Маслова В.А. Лингвокультурология, - М: 2001



Xuddi shunga o'xshash ingliz tilidagi “meet the maker” ingliz xalqi orasidagi xristian dini qarashlari bilan bog'liq bo'lib, unga ko'ra inson vafotidan so'ng inson ruhi uning tanasini tark etib, o'zini yatatguvchisi tomonidan so'roq qilinish uchun uning oldiga qaytadi.

So sad there are some names to delete From card list as they have gone to meet Their Maker leaving quite a hole, But have not forgotten them, it must be told.

Shuningdek, o'zbek xalqining turmush tarsi bilan bog'liq bo'lgan bir nechta iboralar milliy o'zligimizni ochib beruvchi lingvomadaniy birliklarda aks etadi:

1. “To'nini teskari kiymoq”- arazlamoq,
2. “Kavushini to'g'irlab qo'ymoq”- haydab yubormoq
3. “Xamir uchidan patir”- ko'p narsadan boshlang'ich va kichik bir qism
4. “Bozor bahosi”- hamma qatori
5. “Gapga to'n kiygizmoq- qo'shib, chatib gapirmoq
6. “Moshxo'rda qatia”- ishiga aralashmoq.
7. “Ko'rpaga qarab oyoq uzatmoq”- imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq
8. “Do'ppisi tor kelmoq”- ilojsiz vaziyatga tushmoq

Shuningdek, ingliz tilida ham milliylik bilan bog'liq bo'lgan iboralar mavud:

1. “Tea and sympathy” – g'amxo'rlik qilmoq
2. “Bread and butter” – kimningdir tirikchilik qilish yo'li
3. “A hot potato”- hal qilinishi qiyn bo'lgan muammo
4. “A big Cheese”- muhim shaxs
5. “Salad days”- yoshlik davri
6. “Take a rain check”- vaziyatga ko'ra kechiktirmoq.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki frazeologiya sohasi tilshunoslikning nisbatan yangi bo'limlaridan bo'lishiga qaramasdan uning tadqiqot obyekti bo'lgan frazeologik birliklar bugungi kun zamonaviy tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ko'plab izlanishlarning asosini tashkil atmoqda. Sababi inson omili bilan bog'liq bo'lgan kognitiv lingvistika fanida frazeologik birliklar orqali ko'plab konseptlar, lingvomadaniy birliklar, nutqiy aktlarning ma'lum bir xususiyati beriladi. Frazeologik birliklar ma'lum bir xalq ongi, tafakkurining o'ziga xosligini ifodalab, ular avloddan avlodga o'tib kelayotgan o'tmish merosi va qadriyatlarini aks ettiradi.

Frazeologik birliklarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, ular tilda birdan hosil bo'lmasdan yillar davomida tildd ko'p qo'llanishi, barchaga tushunarli bo'lishi asosida turg'unlashadi so'zlovchi tominidan tayyor vosita sifatida qo'llaniladi. Frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq, jamiyat haqida madaniy ma'lumot tashuvchi lingvomadaniy birliklar bo'lib, ular ingliz va o'zbek tillarida ushbu xalqlar dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi.. Hamada ular xalq turmush tarsi, an'analari, madaniyatini ifodalaydi.

²⁰ Dunyoning ishlari. O'tkir Hoshimov, www.ziyouz.com kutubxonasi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.Geeraerts and H.Cuykens. The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. Oxford University Press, 2007.
2. Dunyoning ishlari. O'tkir Hoshimov, www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Francis Grose, Classical Dictionary of the Vulgar Tongue, London, No 212, High Holborn, 1785.
4. <https://audiobook.uz/blogs/news/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar>
5. Mirzo Tursunov, A INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MUBOLAG'AGA ASOSLANGAN BA'ZI BIR FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI, ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz): Том 19 № 19 (2022)
6. www.linguistics.com
7. Makhmudovich, T. M. (2022, January). Techniques of Teaching Metaphors in Class. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 34-38).
8. Tursunov, M. (2023). "ANALYSIS OF NEW LEXICAL UNITS' EMERGENCE IN PUBLICISTIC TEXTS ON THE INTERNET PLATFORM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 31(31). Извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9341.
9. Tursunov, M. (2023). "ANALYSIS OF NEW LEXICAL UNITS' EMERGENCE IN PUBLICISTIC TEXTS ON THE INTERNET PLATFORM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 31(31). Извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9341
10. Makhmudovich, T. M. ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ ТАРКИБИДА ҲАЙВОНЛАРГА ОИД ЛЕКСЕМАЛАР ҚАТНАШГАН БАЪЗИ БИР МЕТАФОРИК ИБОРАЛАРНИНГ ЛИНГВОКОГНИТИВ ТАҲЛИЛИ ЛИНГВОКОГНИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕТАФОРИЧЕСКИХ ФРАЗ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ, ВКЛЮЧАЮЩИХ ЛЕКСЕМЫ ЖИВОТНОГО МИРА LINGUO COGNITIVE ANALYSIS OF SOME METAPHORIC EXPRESSIONS CONTAINING.
11. Mansurovna, Z. S. ., & Mahmudovich, T. M. . (2023). PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING FEELINGS AND EMOTIONS . *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 140–143. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1027>
12. Mahmudovich, . T. M. ., & qizi, R. A. T. . (2023). "MEHNATSEVARLIK" KONSEPTINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK BIRLIKLAR YORDAMIDA IFODA ETISH USULLARI . *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 266–269. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1065>.
13. Mahmudovich, T. M., & G'affurovna, H. N. (2023, May). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIYAT FANI BILAN BOG'LIQLIK JIHATLARI.



In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 164-166).

14. Maxmudovich, T. M. ., & Asrorovna, E. S. . (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZELOGIK OLAMI TASVIRI TAHLILI. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 274–277. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1067>

15. Maxmudovich, T. M. ., & qizi, I. M. O. . (2023). LEXICAL UNITS EXPRESSING CONCEPT “HOSPITALITY” IN THE ENGLISH LANGUAGE . *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 161–163. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1033>.

16. Maxmudovich, T. M. ., & qizi, U. Z. N. . (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MEHNATNI ULUG'LOVCHI MAQOLLARNING SEMANTIK TAHLILI. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 270–273. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1066>.

17. Zubaydullo Rasulov, & Otabek Murtazoyev. (2023). The Role of the Context and Situation in Intertextuality. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(5), 328–335. Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1785>.

18. Izomovich, R. Z. ., & Mohinur, N. . (2023). TIL O'QITISHDA MANIPULYATSIYANING O'RNI VA MUHIM AHAMIYATI. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 312–314. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1079>.

19. Izomovich, R. Z. . (2023). Expression of the Factors of Mutual Equilibrium Between Redundancy and Economy in the Formation of the Text . *Miasto Przyszłości*, 32, 125–127. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1110>.

20. Saidova, Z. (2022). СТРУКТУРНО-ГРАММАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПСИХИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И ЛИЧНОСТНЫХ СВОЙСТВ КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ЗОНА ФРАЗЕОЛОГИЗМ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 8(8).

21. Saidova, Z. (2022). ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ МОДУЛЬНОЙ ОБЪЕКТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ДИНАМИЧЕСКОЙ ОБУЧАЮЩЕЙ СРЕДЫ (MOODLE) В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4352.

22. Khudoyberdievna, S. Z. (2017). Didactic games as framework of students in cooperation. *Научный журнал*, (3 (16)), 48-50.

23. Khudoyberdievna, S. Z. (2017). Psychological bases Of the development moral and aethetic outlook of future vocational teachers. *Научный журнал*, (3 (16)), 51-52.

24. Zarifovna, R. N. . (2022). Theoretical Foundations of the Study of Euphemisms. *Miasto Przyszłości*, 30, 262–264. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/910>



25. Ruziyeva, N. Z. (2023). EVFEMIK OLAM MANZARASIDA O'LIM KONSEPTINING AKS ETTIRILISHI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA). *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 443–447. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/950>.
26. Abdullayeva, G. (2022). LEARNERS' PSYCHOLOGY AS ONE OF THE MAIN ISSUES INFLUENCING LANGUAGE LEARNING PROCESS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 11(11). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/download/6321/4013
27. Abdullayeva, G. G. (2023). LANGUAGE LEARNING AND PSYCHOLOGY. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 555-560. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/520>
28. Nazarova Navbahor Ahrorovna, & Muhiddinova Marjona. (2023). INTERFAOL TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(16), 179–185. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/3920>.
29. Askarovich, H. A. (2022, January). So'z Ma'nolari Intensivligi. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 13-15).
30. Haydarov, A. (2020). Methodological features of graphic tools. *Middle European Scientific Bulletin*, 5.
31. Askarovich, H. A. (2022). SOME COMMENTS ON THE STYLISTIC REPETITION. *JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 8 (1), 87–91.
32. Haydarov, A. (2012). Choriyeva Z. Ingliz tilida fraze birliklarning semantik-grammatik va uslubiy psixologik. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: baholash, dioxroniya materiallari to'plami. T.: *Muharrir*, 8-10.
33. Haydarov, A., & Jo'raqulova, G. (2012). Frazologik iboralar tarjimasida. Tilning leksik-semantik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallari to'plami. T.: *Muharrir*, 10-13.
34. Haydarov, A., & Jo'raqulova, G. (2012). Frazologik iboralar tarjimasida. Tilning leksik-semantik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallari to'plami. T.: *Muharrir*, 10-13.
35. Haydarov, A., & Jo'raqulova, G. (2012). Frazologik iboralar tarjimasida. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: Sinxroniya va diaxroniya. Materiallar to'plami, T.: *Muharrir*, 10-12.
36. Haydarov, A., & Jo'raqulova, G. (2012). Frazologik iboralar tarjimasida. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: Sinxroniya va diaxroniya. Materiallar to'plami, T.: *Muharrir*, 10-12.
37. Haydarov, A. (2008). Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: *Muharrir*.
38. Saidov, K. (2023). GENERAL TRENDS TOWARDS SAVING LANGUAGE RESOURCES AND THEIR IMPACT ON THE WORD FORMATION OF MODERN



ENGLISH SLANG. INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION", 2(2), 123–128.
<http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1262>.

39. Saidov, K. S. (2022). LANGUAGE EVOLUTION AND LANGUAGE ECONOMY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION", 1(4), 108–115.
<http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1019>.

40. Saidov, X. (2022). A The Historical Development of The Problem of Language Economy. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 15(15). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6905.

41. Saidov, X. (2022). A THE EXPRESSION OF LEXICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AS A RESULT OF ECONOMY OF COGNITIVE STRUCTURES. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 15(15).
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6906.

42. Saidov, X. (2022). A The Historical Development of The Problem of Language Economy. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 15(15).
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6905.

43. Saidov, X. (2022). Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 15(15).
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6902.

44. Saidov, X. (2021). ELLIPSIS AS A SPEECH PROCESS(ON THE MATERIAL OF WORDS). *ILMIY NASHRLAR MARKAZI (buxdu.Uz)*, 6(6).
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/31.